



UDK: 378.147:159.9.072.43

Murodjon YULDASHEV,

Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o'qituvchisi, TDPU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: murodyuldashev278@gmail.com

M.Berdibayev NDPI katta o'qituvchisi taqrizi asosida

TALABALARNING SHAXSIY KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada talabalarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati muhokama qilinadi. Talabalar o'z kasbiy sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilimlarga, balki shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham ehtiyoj sezadilar. Maqolada kasbiy sifatlarini rivojlantirish, shaxsiy ko'nikmalarni oshirish va o'rganishning yangi metodlari orqali talabalarni kelajakdagi ish hayotiga tayyorlash masalalari ko'rib chiqiladi. Bunda innovatsion ta'lim metodlari, jamoaviy ishlash, kreativ fikrlash, va liderlik ko'nikmalari o'rganish jarayonining ajralmas qismlariga aylanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy sifat, shaxsiy rivojlanish, ta'lim metodlari, jamoada ishlash, innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash, liderlik, o'zgarishga tayyorlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается важность развития профессиональных и личных качеств студентов. Для достижения успеха в своей профессиональной сфере студенты нуждаются не только в профессиональных знаниях, но и в развитии личных навыков. В статье рассматриваются вопросы развития профессиональных качеств, улучшения личных навыков и подготовки студентов к будущей профессиональной жизни через современные методы обучения. Подчеркивается необходимость использования инновационных методов, командной работы, творческого мышления и лидерских качеств в процессе обучения.

Ключевые слова: Профессиональные качества, личностное развитие, методы обучения, командная работа, инновационный подход, творческое мышление, лидерство, готовность к изменениям.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PERSONAL PROFESSIONAL QUALITIES OF STUDENTS

Annotation

This article considers the importance of developing the professional and personal qualities of students. To achieve success in their professional sphere, students need not only professional knowledge, but also the development of personal skills. The issues of developing professional qualities, improving personal skills and preparing students for future professional life through modern teaching methods are considered. The need to use innovative methods, teamwork, creative thinking and leadership qualities in the learning process is emphasized.

Key words: Professional qualities, personal development, teaching methods, teamwork, innovative approach, creative thinking, leadership, readiness for changes.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi talabalarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda yangi va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Global miqyosda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va rivojlanishlar yangi metod va texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalarining har tomonlama o'sishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada talabalarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar haqida so'z yuritamiz. Talabalar, nafaqat kasbiy bilimlarni, balki shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishlari lozim. Kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish esa nafaqat talabalar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Kasbiy sifatlarini rivojlantirish talabalarni o'z sohasida malakali va muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lishlariga yordam beradi. Bugungi kunda ish bozori o'zgaruvchan va talabalar yuqori. Talabalar nafaqat teoriya, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak.

Innovatsion texnologiyalar va global iqtisodiy muhitning tez o'zgarishi kasbiy bilimlarni va malakalarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi. Talabalarining kasbiy

sifatlarini rivojlanishi ularning professional faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarurdir. YA'ni, dasturlash, marketing, muhandislik yoki boshqa sohalarda amaliy tajriba va maxsus ko'nikmalar, talabalarni ishga joylashish jarayonida raqobatbardosh qiladi.

Shaxsiy sifatlarini rivojlantirish: O'z-o'zini anglash va ijtimoiy muvaffaqiyat.

Shaxsiy sifatlar, ayniqsa o'z-o'zini anglash, muloqot qilish, vaqtni boshqarish, stressni yengish kabi ko'nikmalar, talabalar hayotining barcha jabhalarida ularga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish, talabalar o'zlarini yanada samarali ifoda eta olishlari, boshqalar bilan muloqot qilishda muvaffaqiyat qozonishlari va hayotdagi har qanday vaziyatda maqsadlariga erishishlari uchun zarurdir. Ushbu sifatlarini rivojlantirish nafaqat talabalar o'zining shaxsiy hayoti, balki ijtimoiy va professional hayotida ham muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Bugungi dunyoda tez o'zgarayotgan texnologiyalar va mehnat bozorining dinamikasi talabalarni yangi bilimlarni o'rganishga va moslashuvchan bo'lishga undaydi. Talabalar yangi sharoitlarga tez moslasha olishlari va har qanday

o'zgarishlarga ochiq bo'lishlari kerak. Yangi texnologiyalar, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. O'rganishning yangi metodlari, masalan, onlayn kurslar va interaktiv ta'lim usullari talabalarni innovatsion g'oyalarga ochiq qilishga yordam beradi. Bu esa talabalarni o'z kasblarini samarali bajarish va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan sifatlarni egallashga undaydi.

Jamoadi ishlash va liderlik: Ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish.

Kasbiy va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish jarayonida jamoada ishlash va liderlik ko'nikmalarini oshirish ham katta ahamiyatga ega. Talabalar jamoaviy ishda samarali qatnashish, boshqaruv va rahbarlik sifatlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olishadi. Jamoaviy ish orqali talabalar bir-birlarini tushunish, qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, liderlik sifatlarni rivojlantirish talabalarni kelajakda katta tashkilotlarda muvaffaqiyatli boshqaruvchilar bo'lishlariga tayyorlaydi.



Shunga ko'ra talabaning kasbiy sifatlari ko'proq dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalarda kasbiy sifatlarni takomillashtirish jarayoni pedagogik talablar (kasbiy mahorat, deontologik sifatlari) asosidagi akmeologik motivatsiya tuzilmasini ichki integratsiyalashga ustuvorlik berish negizida takomillashtirishga mo'ljallangan. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, davlatning ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillaridan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Kasbiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Tarbiyalashda ko'proq quyidagi ta'lim prinsiplariga tayaniladi:

Ilmiylik tamoyili amaliy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy bilimlar, faktlar, tushunchalar, qoidalar va ilmiy kompetentsiyalarni o'rganishni kafolatlaydi.

Tizimlilik tamoyili – o'qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini, tilning o'zini yaxlit bir tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni, shuningdek, talabalar tomonidan yaratiladigan matnlarning izchil, tizimli, mantiqli shakllanishiga erishishni ko'zda tutadi.

Izchillik tamoyili – talabalar tomonidan tilga oid tushunchalarni izchil o'zlashtirish, nutqiy kompetentsiyalarni

O'z-o'zini baholash va o'zgarishga tayyorlik.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim jihati bu o'z-o'zini baholash va o'zgarishga tayyor bo'lishdir. Talabalar o'z sifatlarni baholab, kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu jarayon, o'z-o'zini anglashga, o'zgarishlarga tayyor bo'lishga va doimiy ravishda o'zini takomillashtirishga yordam beradi. Kasbiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar o'zlarini baholash va o'zgarishga tayyor bo'lishlari zarurdir.

Jamiyatda kechayotgan tub o'zgarishlar, turli axborot oqimlarining Respublika ma'naviy-ijtimoiy hayotiga ko'rsatadigan kuchli ta'siri, buzg'unchi g'oyalar xurujini bartaraf yetish zaruriyati yosh avlod tarbiyasi ushuncha mas'ul bo'lgan o'qituvchi shaxsiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yimoqda. Shu bois bugungi kun o'qituvchisi nafaqat kasbiy malakaga, balki yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlari, bu dunyoqarash, intellektual salohiyat, mustaqil fikr egasi bo'lishi zarur. Bu sifatlari bevosita o'qituvchining shaxsiy va kasbiy yetukligini ifodalaydi.

bosqichli ketma-ketlikda shakllantirish, til imkoniyatlaridan mavzu talabi asosida, maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili – talabalar tomonidan mustaqil matn yaratishda tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik, audio-videomateriallar, multimedia, internet va elektron o'quv vositalaridan unumli foydalanishni ko'zda tutadi.

Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili ta'lim mazmuni, izchilligi va mantiqan bog'liqligi, o'quvchilar tomonidan matn yaratish jarayonida o'zaro uzviylikni ta'minlash, o'quvchilarda madaniy muloqotni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Onglilik tamoyili – mustaqil matn yaratish kompetentsiyalarini egallashda talabalardan kompetentlilik darajasini ongli yuksaltira bilishni talab qiladi.

Talabalarining kasbiy va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish – bu ularning nafaqat o'qishdagi muvaffaqiyatlarini, balki kelajakdagi professional va ijtimoiy hayotidagi yutuqlarini ham ta'minlaydi. Kasbiy sifatlari talabalarni ishga joylashish va o'z sohasida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradigan asosiy omil bo'lsa, shaxsiy sifatlari esa ular uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ta'lim tizimi ushbu sifatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishi, talabalarga keng ko'lamli bilim va ko'nikmalarni o'rgatishi kerak. Bu nafaqat talaba, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lib, uning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tushunarlilik tamoyili – yangi bilimlarni o'zlashtirishni qulay qiladigan, asosiy g'oyani anglashini osonlashtiradigan atama va tushunchalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Uzviylik tamoyili – talabalarining avval o'zlashtirgan bilimlari bilan yangi o'rganilayotgan mavzular o'rtasidagi sathlararo aloqadorlik saqlanishi, shuningdek, imlo, punktuasiya va uslubiyatga doir bilimlar ham matn yaratish bilan uzviylikda takomillashtirilishi nazarda tutiladi.

O'qitish, tarbiyalash san'ati, pedagogik mahoratni egallash - murakkab va davomli jarayon bo'lib, uni oliy o'quv yurtida talabani o'qitish davrida to'la- qonli amalga oshirib bo'lmaydi.

Pedagogik mahoratni egallash faqatgina mutaxassisning mustaqil ishlashi, amaliy ish tajribasi jarayonida amalga oshadi. Ammo bu o'qituvchilik kasbiga tayyorlash qiyinchiliklarini kamaydi degani emas. Talabani

o'quv-tarbiya jarayonini optimal tashkil etishga o'rgatish, uni nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish lozim. Nazariy bilim berish bilan amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlikni o'rganishni tajribalarimiz ko'rsatishicha, maktab hayoti sharoitini real ko'rsatuvchi va turli pedagogik masalalarda o'z aksini topuvchi pedagogik vaziyatlarni modellashirishga yordam beradi.



Talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishining eng muhim manbalaridan biri ularning universitet o'quv jarayoniga moslashishidir. Biz didaktik moslashuv haqida gapiramiz. N. V. Solovyovaga ko'ra, «Didaktik moslashuv-bu talabani universitet sharoitlari bilan tanishtirishning murakkab dinamik jarayoni, natijada u yangi ta'lim shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan, olingan ma'lumotlarning katta miqdori, yangi faoliyat sub'ektiga aylanadi, yanada intensiv aqliy mehnat sharoitida o'z funktsiyalarini maqbul bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi». Ya'ni, didaktik moslashuv talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muhim manbai, vakolatli shaxsni shakllantirishning zarur elementi hisoblanadi.

Mulohaza. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv muammolari talabalar ta'limni tashkil etish shaklining o'zgarishi bilan bog'liq. Muvaffaqiyatli didaktik moslashish uchun birinchi kurs talabasi o'rganilayotgan mavzular bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalarga, moslashuvchan fikrlashga, kognitiv mustaqillikning yaxshi rivojlangan darajasiga, turli manbalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatiga, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga, ravon o'qishga, yozuvlarni yozishga va boshqalarga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, talabalarining universitet ta'limiga moslashuvining o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq jihatlarini – psixologik, pedagogik, shuningdek, o'quv va kasbiy qulayliklarni hisobga olish lozim,

Baydak V. Yu. «talabalarini universitetda o'qishga moslashtirish ularning maktabdagi o'quv faoliyatini shakllantirish darajasiga bog'liq va bu o'quvchining o'quv faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish jarayoni ekanini aniqlagan.

Baydak V.Yu. ning fikriga qo'shilib, talabalarining o'quv, kasbiy va psixologik-pedagogik moslashuvi zamonaviy universitetning ta'lim muhitida eng muvaffaqiyatli tarzda sodir bo'lishiga e'tibor qaratish to'g'ri deb hisoblaymiz, uning rivojlanishini boshqarish istiqbolli pedagogik tadqiqotlar uchun asos bo'lishi kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, psixologik va pedagogik kontekstda «moslashish» tushunchasining rivojlanishini talabalarining universitet ta'limining o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tahlil qilib, biz ushbu muammo yanada kengroq va fanlararo bog'liq ekanligini aniqladik. Pedagogika kasbiy pozitsiyalardan moslashishni kasbiy yo'naltirish tizimining tarkibiy qismi va kasbiy barqarorlikni shakllantirishning zarur elementi sifatida ko'rib chiqadi. Moslashuvning butun jarayoniga o'qishga psixologik tayyorlik, universitet ta'lim muhitidagi psixologik qulaylik, kasbiy rivojlanish makoniga «sho'ng'ish» uchun shaxsiy intilish kabi sharoitlar katta ta'sir ko'rsatadi. Barcha tarkibiy qismlar zamonaviy universitetning ta'lim muhitida talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi Xayrullayev.M.M. Toshkent, Fan nashriyoti, 1975
2. Avloniy A.Turkiy guliston yohud axloq.– T.: Ma'naviyat, 1998.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari.- T.: Fan, 2007
4. Таиров, Б. Б., Хўжжиев, М. Я., & Ўғли, Қ. З. А. (2023). Программно-методические возможности обучения на основе когнитивно-изобразительного подхода в подготовке инженеров-техников.Universum: технические науки, (5-2 (110)), 29-36.